



**VILOYAT _____ TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
BO'LIMIGA QARASHLI _____-UMUMIY
O'RTA MAKTABI _____-“ ” SINF
RAHBARI _____**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining
34 yilligiga bag’ishlangan “**Vatan
uchun, Millat uchun, Xalq uchun**” shiori
ostida tayyorlagan bir soatlik

DARS ISHLANMASI



2025-2026-o’quv yili

Mavzu bayoni : Vatan uchun,Millat uchun,Xalq uchun.

Dars maqsadi: Ta'limiylar: muqaddas bayram-mustaqillik bayrami, 34 yil ulkan davr ichida O'zbekistonimiz qiyofasi batamom o'zgarib, buniyodkorlik ishlari olib borilganligi haqida o'quvchilarga tushuncha berish;

TK2: mavjud axborot manbalaridan (kitob, telefon, kompyuter) foydalana olishva ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish;

Tarbiyaviy: O'quvchilarni azaliy qadriyatlarimizga, milliy an'ana va urfatlarimizga hurmat, insonlarga mehr-oqibatlari bo'lishga o'rgatish;

TK3: yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarga rioya qilish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qilish va xatolarini tuzatishga harakat qilish;

Rivojlantiruvchi: Aziz ona-vatanimiz-oltin beshigimiz dunyodagi boshqahamma mamlakatlardan serquyoshligi, zaminning naqadar unumdarligi, yer osti, yer usti boyliklarining behisobligi bilan ajralib turishi, hamda ularni asrab- avaylash o'quvchi yoshlarning qo'lida ekanligi haqidagi tushunchalarni mustahkamlash.

TK5: badiiy adabiyotda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalaridan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnatishga intilish.

Dars jihizi: qalamlar maketi, xarita, videolavha, tabriknomalar tayyorlash uchun jihozlar, vatanimiz tasvirlangan rangli rasmlar

Shakl: jamoa, guruhda ishslash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: O'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. **Baholash:** O'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxiridae'lon qilinadi.

I.Tashkiliy qism, sinf tozaligi, o'quvchilar bilan salomlashish:

**Salom aziz bolalarim,
Gulu rayhon bolalarim.
Qani tinglang so'zlarim
Jajji o'g'il-qizlarim.**

**Ona yurt egasisiz,
Istiqlol ertasiz
Bo'ling aqlu rasolar,
Ham bilimdon donolar**

Darsning borishi

T/R	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'quvchilar bilan kirish suhbatি	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag`batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

O‘qituvchi:

Yetti rangda tovlanib,
Yal-yal yonar osmonda.
Deysan, go‘yo mo‘jiza
Ko‘rmaganlar armonda.

O‘qituvchi: Bu nima ekan aziz o‘quvchilar?

K A M A L A K (Kamalak haqida ma’lumot beriladi.)

Sinf kamalak rang guruhlarga ajratilgan. Har bir guruh o‘tiradigan joy, nomiga mos rang bilan bezatilgan. O‘quvchilar xattaxta yonida tizilib turishadi va ularga yoqtirgan ranglarini tanlab, o‘z ismi va rang nomini aytishi so‘raladi.



O‘qituvchi: — Mening judayam aqli, zukko bolalarim, yurtimizdagи yangilanishlarga befarq emasligingizni namoyish etdingiz. Rahmat, sizlarga.

Vatan tushunchasini chiroyli ta’rifladningiz. (*«O‘zbekiston — Vatanim» qo‘shtig‘i ijro etiladi*).



«2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, inson huquq va manfaatlari, uning qadri, sha’ni va g’ururini yetakchi o‘ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo‘linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag’rikenglik va hamjih atlikni mustahkamlashga

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligini munosib kutib olish va ushbu qutlug’ sanani yuksak darajada nishonlash maqsadida:

O‘zbekiston Respublikasi davlatmustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasining (keying o‘rinlarda–Respublika komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq; “Yangi O‘zbekistonda el aziz, insonaziz” degan boshg’oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda targ’ibot-tashviqot ishlari dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanadi.

Respublika komissiyasi (A.Aripov):

- Dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning samarali bajarilishi hamda Mustaqillik bayramining Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar va tumanlar,qishloq va ovullarda keng nishonlanishini ta’minlaydi;
- barcha hududlarda aholining keng qatlamlari o‘rtasida Mustaqillik bayramiga bag’ishlab ma’rifiy uchrashuvlar, ochiq muloqot va suhabatlar,adabiy-badiiy kechalar, dolzarb mavzular bo‘yicha fikr almashuvlar, madaniy tadbirlarni samarali o‘tkazish maqsadida taniqli ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, madaniyat va san’at arboblaridan iborat targ’ibot guruhlarini tashkil etsin hamda ularning aniq reja asosida faoliyatolib borishini yo‘lga qo‘yadi;
- belgilangan chora-tadbirlar qanday amalga oshirilayotgani yuzasidan har birhudud, vazirlik va idora rahbarlarining hisobotlarini o‘z yig’ilishlarida muntazam ravishda eshitib boradi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o‘tkaziladigan bayram dasturlarini tayyorlashga ommaviy tomoshalar bo‘yicha yuksak mahorat va tajribaga ega bo‘lgan senarist va rejissorlar, yozuvchi va shoirlar, kompozitor va baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste’dodli yosh ijrochilar, maqom va baxshichilik san’ati vakillaridan iborat ijodiy guruhlar keng jalb etilsin.


Joylarda Mustaqillik bayramini yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratiladi: so‘nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar, xalqning hayoti, qalbi va ongida yuz berayotgan ijobjiy o‘zgarishlarni ta’sirchan usullarda ifoda etish;

Mamlakatda turli millat va diniy konfessiya vakillari o‘rtasida ahillik va totuvlik muhitini yanada kuchaytirish, jamiyatda tinch va osoyishta hayotni ta’minalash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ahamiyatini chuqur tahlillar, aniq hayotiy misollar yordamida keng jamoatchilikka yetkazish; bugungi tinch va erkin hayotni qadrlab, shukronalik tuyg’usi bilan yashashga, inson qadrini ulug’lashgada vatetadigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni uyushtirish;

aholining hayot darajasi vasifasini yaxshilash, yoshlar, xotin-kizlar, keksa avlod vakillari, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga doimiy e’tibor va g’am xo‘rlik ko‘rsatishga qaratilgan dasturlarimizning ijobjiy natijalarini ko‘rsatish; bayram munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi faxriylari, keksa avlod vakillarini qo‘llab-quvvatlash, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” ga kiritilgan hamda ko‘makka muhtoj insonlarning holidan


xabarolish, ularga beg'araz yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlarini amalga oshirish. Xalqimizdagi saxovatpeshalik, ijtimoiy himoyaga muxtoj, yakka-yolg'iz, boquvchisini yo'qotgan kishilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash singari insoniy fazilatlar turli bayram va qutlug' sanalar arafasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mustaqillik ayyomiga tayyorgarlik doirasidagi savob va xayrli tadbirlar ham bundan mustasno emas. Bayram shukuhi mahalla fuqarolar yig'inlaridagi "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" ga kiritilgan ham yurtlarimiz qalbini o'ziga xos shodu-xurramlik bilan qamrab olishi o'z-o'zida nayon. Qolaversa Prezidentimiz qaroridagi asosiy bandlarning birida aynan shu muhim masala bilan bog'liq galdeg'i vazifalar belgilab berilgan. Mustaqillik-oliy ne'mat.

Binobarin, uni ko'zqorachig'idek asrab-avaylash, unga munosib bo'lish, O'zbekiston Respublikasining **2022-2026** yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash yo'lida fidokor onam mehnat qilish va yashash-oliy maqsadimizdir.



Mustaqilligimizga sportchilarimiz tomonidan kata yutuqlarga erishganlarini o'quvchilarga yana bir bor Vatanparvarlik ruhida tushuntiriladi.

Milliy olimpiya qo'mitasi ma'lum qilinganidek, bu yil 90 nafar sportchidan iborat O'zbekiston delegatsiyasi sportning 19 turida ishtirok etadi. Bu rekord ko'rsatkich. Vatandoshlarimiz oldida katta miqyosli, qiyin vazifalar turibdi. Sportchilarimiz raqiblar bilan kurashishlari va eng yaxshi natijalarini ko'rsatishlariga ishonch bildiramiz. O'zbekiston ushbu sport musobaqasida ishtirok etish uchun litsenziyalarni qiyin to'qnashuvlar natijasida qo'lga kiritdi.



Fransiyadagi yozgi olimpiada g'oliblarimiz




Bahodir Jalolov boks bo'yicha 2 karra olimpiada chempioni bo'ldi.



Ulug'bek Rashidov taekwondo bo'yicha 2 karra olimpiada chempioni bo'ldi



DIYORA KELDIYOROVA Dzyudo bo'yicha 2 karra olimpiada chempioni bo'ldi



Hasanboy Dusmatov boks bo'yicha 2 karra olimpiada championi bo'ldi.



Lazizbek Mullajonov boks bo'yicha olimpiada championi bo'ldi.

Parijda yozgi olimpiada o'z yakuniga yetdi. O'zbekiston sport delegatsiyasi o'ylarni tarixiy natija bilan, 206 mamlakat orasida 13-o'rinda yakunladi. Bu – Osiyo qit'asidagi to'rtinchi, islom olami va turkiy dunyo miqyosida esaeng yaxshi natija.

O'zbekiston hisobidagi 13 ta medaldan iborat jamg'arma tarkibi – 8 ta oltin, 2 takumush va 3 ta bronzadan iborat bo'ldi. Bu galgi o'yinlarda o'zbek sporti qayd etgan muhim natijalar:

- tarixda ilk marta o'zbekistonlik ayol sportchi Olimpiadaning oltinmedaliga sazovor bo'ldi;
- erkaklar boksidagi 7 ta vazn toifasidan 5 tasida o'zbekistonliklarchampion bo'ldi;
- delegatsiyaning birdaniga uch a'zosi olimpiya o'yinlarining ikki karrachampioniga aylandi;
- olimpiadalarda ilk bor o'zbekistonlik dzyudochilar 3ta, tayekvondochilar esa 2 ta medalni qo'lga kiritdi;
- o'zbek sporti Parij olimpiadasida futbol, suvgaga sakrash, kamondan otish va ayollar kurashi bo'yicha debyut qildi.

Sportchilarning bu yutuqlari davlatimiz rahbari tomonidan munosib taqdirlandi





Darsni yakunlash va uygaz vazifa beraman.

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni, Oq yuvib, oq taragansan o'zing bizni. Beshigimiz
uzra bedor ona bo'lib, Kunimizga yaragansan o'zing bizni.
Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston, Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!

Uygaz vazifa: “Vatan uchun, Millat uchun, Xalq uchun” mavzusida rasm chizish.



Sinf rahbari : _____